

YANGI O'ZBEKISTON IJTIMOYIY TARAQQIYOTINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Qodirov Otabek Alisher o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Yangi O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining nazariy-metodologik asoslari haqida so'z yuritiladi, Barqarorlik va xavfsizlik har bir davlat taraqqiyotining, iqtisodiyoti investitsiyaviy jozibadorligining hal qiluvchi omillari hisoblanadi". Insoniyat tarixining hozirgi davri va bugungi dunyo taraqqiyoti bundan 40-50 yil oldingi hayot voqealigidan keskin farq qiladi. Biz endilikda globallashuv jarayonlari xar tomonlama avj olayotgan, butun jahonda u bilan bog'liq o'zgarish va yangilanishlar shiddat bilan sodir bo'layotgan zamonda yashamoqdamiz. Bunday murakkab umumbashariy jarayonlarni tahlil qilishda turli mezonlar asosida yondashish mumkun va lozim, albatta.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, globallashuv, dunyo hamjamiyati, kapital, shaxs.*

Yangi O'zbekistonning taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson va jamiyat ma'naviy olamini mulohaza qilish eng dolzarb muammoga aylandi. Chunki intellektual rivojlanish natijalaridan g'arazli maqsadlardan foydalanish pragmatik usulda bormoqda. Jaxonda ijtimoiy hayotning turli sohalarida fikrlar va g'oyalar, mafkuralar xilma-xilligi o'ziga xos jo'shqin ifoda bo'lib boraveradi. Bu esa o'z navbatida mafkuraviy plyuralizm (lot. Pluralis-xilma-xillik, rang-baranglik) ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglik qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi. Jamiyatning rivojida inson va jamiyat hayotida g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo'lishi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj namunasi hamda ifodasidir. Jamiyat rivojida tinchlik va barqarorlikni mustaxkamlashda inson omiliga bog'liq bo'lgan muhim xususiyatlaridan biri, ma'naviyatga tahdid soladigan xavflar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lim-tarbiya, ota-onalar o'g'itlari, yaxshilik va yomonliklarni ko'rishi va bilishi jarayonida shakllana boradi. Farzandga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak degan savollarga asoslangan bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo'lga qo'yilsagina har bir millat, elat, xalq sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Immunitet esa o'z navbatida odamni to'g'ri yo'ldan "ozish"dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, omadsizlikdan, baxtsizlikdan, millatni esa - parokandaliklardan, parchalanishlardan, sinfiy, mahalliy yoki boshqa bo'linishlardan asrab turadi.

Barqarorlik va xavfsizlik har bir davlat taraqqiyotining, iqtisodiyoti investitsiyaviy jozibadorligining hal qiluvchi omillari hisoblanadi". Insoniyat tarixining hozirgi davri va bugungi dunyo taraqqiyoti bundan 40-50 yil oldingi hayot voqealigidan keskin farq qiladi. Biz endilikda globallashuv jarayonlari xar tomonlama avj olayotgan, butun jahonda u bilan bog'liq o'zgarish va yangilanishlar shiddat bilan sodir bo'layotgan zamonda yashamoqdamiz. Xalqaro maydonda turli manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotgani, jaxon siyosati va iqtisodiyotida

muammolar keskinlashayotgani, dunyoning umumiy manzarasini o'zgartirish tarafdorlari tobora ortib borayotgani hozirgi global dunyo taraqqiyotiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday murakkab umumbashariy jarayonlarni tahlil qilishda turli mezonlar asosida yondashish mumkin va lozim, albatta. Bu masalaga keyingi yillarda jaxonning ham siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgan chuqur yangilanish va o'zgarishlar tahlili nuqtayi nazaridan yondashish uning ko'pgina jihatlariga bir qadar oydinlik kiritadi Dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan turli ko'rinishdagi plyuralistik o'zgarishlar, g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar xar bir mamlakatning tinchlik va barqarorligiga salbiy omillarni olib keladi, o'z navbatida davlatning rivojlanishiga, barqaror taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Jahonda inson kapitali insoniyatning va har bir davlatning taqdirini belgilaydigan asosiy mezoniga aylanmoqda. Zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi asosan insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Shu sababli inson kapitalini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlariga, inson kapitaliga sarmoya kiritish va rivojlantirish muammosi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biridir. Shu sababli ham qayerda inson kapitali, uning ravnaqiga ko'p e'tibor berilayotgan, shart-sharoit yaratilayotgan bo'lsa, bugun o'sha mamlakatning tez rivojlanayotgani va taraqqiyoti jadal ildamlayotganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, inson kapitali muammosi globallashtayotgan va murakkab zamonaviy jamiyatning eng dolzarb hamda muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki inson kapitali inson fenomeni o'rganadigan fundamental g'oyalardan kelib chiqadi. Uning iqtisodiy, siyosiy, milliy va ma'naviy asoslarida uni takomillashtirish uchun muhim g'oyalar mavjud. Albatta, jamiyat inson kapitalini shakllanishi, to'planishi va boyishidan tobora ko'proq manfaatdordir. Vaholanki, inson kapitali insonning tug'ilishidan boshlanadi va uning hayoti davomida davom etadi. Shu sababli ham gumanitar fanlar va ijtimoiy falsafada bu jarayon tobora jamiyatning strategik muhim sohasi sifatida qaralmoqda. Inson kapitali tushunchasining falsafiy jihatdan tahlil qilishda «inson» va «kapital» tushunchalarining mazmun-mohiyati, inson kapitaliga oid yondashuvlar xususida fikr yuritishimiz kerak bo'ladi. Darhaqiqat, inson kapitali (inglizcha «human capital») zamonaviy fan, falsafa, siyosat va iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. U ikki so'z «inson» va «kapital»dan tashkil topgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, inson ong va aqlga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Shuningdek, «inson olamdagi boshqa biologik mavjudotlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga, ya'ni aql, ma'naviyat, madaniyat, axloq, tafakkur, til va boshqa jihatlariga ega bo'lgan ijtimoiy vujud, odam zotini anglatuvchi tushunchadir».

«Kapital» tushunchasi ilmiy lug'atlarda quyidagicha ta'riflanadi, ya'ni (lotincha capitalis – bosh, asosiy, hukmron) «ixtiyoriy ayriboshlash asosida iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish orqali ortiqcha qiymat olish uchun ishlatiladigan aktivlar majmui.» hamda daromat keltirishi mumkin bo'lgan hamma narsa, «odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslardir». Shuningdek, o'zbek lug'atlarida kapital keng ma'noda «sarmoya o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar», tor ma'noda «yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko'paytiruvchi qiymat» sifatida qo'llaniladi.

Albatta, kapital keng qamrovli tushuncha bo'lib asosan «moddiy boyliklar, pul zahirasi, ishlab chiqarishning moddiy omili, insonning bilim va qobiliyatlari, iqtisodiy o'sishning ko'p omilli nazariyasi insonga qilingan investitsiya, ya'ni inson kapitalining jamg'arilishidir».

Inson kapitali nazariyasi institutsional nazariya, neoklassik nazariya, neokeynschilik kabi iqtisodiy nazariyalarining yutuqlariga asoslanadi. Jumladan, ushbu nazariya Uilyam Petti, Karl Marks, Adam Smit, Djon Styuart Mill, Teodor Vitsteyn, Genri Sidjvik, Ernst Engel, Uilyam Farr, Alfred Marshall, Geynrik Rosher kabi mashhur iqtisodchilarning asarlarida tarixiy asoslariga ega. Darhaqiqat, inson kapitali g'oyasi dastlab Uilyam Petti tomonidan «Siyosiy arifmetika»da shakllantirilgan bo'lsa, keyinchalik Adam Smidning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari bo'yicha tadqiqot» va Alfred Marshallning «Iqtisodiy fan prinsiplar» kabi asarlarda ochib berilgan. Ushbu olimlar aynan inson kapitali to'grisida fikr yuritmagan bo'lsa ham uning elementlarini rivojlantirishga, inson kapitali nazariyasining shakllanishiga ta'sir etgan. Xususan, U.Pitter «davlat statistika xizmatini yaratish, milliy boylik va milliy daromadni hisoblash zarurligi» ni isbotlagan. Bu esa o'sha davr uchun ko'rsatkichlarni hisoblash bilan birga zamonaviy milliy hisoblar tizimini yaratishga asos bo'ldi. Ayniqsa olim umrining oxirigacha asosan aholi soni, uning o'sishi, taqsimlanishi, bandlik masalalari bilan shug'ullandi. Bu masalalar esa aynan inson kapitalini rivojlantirishga sabab bo'ladigan omillar hisoblanadi.

Albatta, yuqoridagi olimlardan Adam Smidning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari bo'yicha tadqiqot» asarini alohida e'tirof etish kerak. Chunki ushbu asar iqtisodiy nazariyalarga sezilarli ta'sir o'tkazgan, ayniqsa klassik siyosiy iqtisodning asosiy asarlaridan hisoblanadi. Ushbu asar 5 ta kitobdan iborat bo'lib, ularda «mehnat unumdorligining oshishi sabablari, uning mahsuloti aholi tabaqalari orasida tabiiy ravishda taqsimlanishi; kapitalning tabiati, uning to'planishi va qo'llanilishi; turli xalqlar o'rtasida farovonlikni rivojlantirish; davlatning daromadlari to'grisida» so'z yuritilgan. Darhaqiqat, olimning ushbu asari davlatning iqtisodiyotdagi o'rnini belgilashda klassik nazariya sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki olim ta'kidlashicha, «davlat inson hayoti va mulki xavfsizligini ta'minlashi, nizolarni hal etishi, qoidalarga rioya etilishini kafolatlashi shart». Shu jumladan, yangi O'zbekistonda «davlat - inson uchun» tamoyili amalga joriy etildi. Bugun insoniyatga bo'layotgan tahdidlarning eng xatarlisi bu manaviy tahdiddir. «Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iyl nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim». Bu ta'rif o'zining bir necha jihatlari bilan diqqatni tortadi. Unga ko'ra ma'naviy tahdid quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) til tanlamaydi;
- b) din tanlamaydi;
- c) e'tiqod tanlamaydi.

E'tiborlisi shuki, ma'naviy tahdidlar faqat inson tomonidan yaratiladi va faqat insonga tajovuz qilinishi bilan zararlidir. Bular orasida ko'zga tashlanmaydigan, ammo inson ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir qiladigan quyidagi omillar xavfli hisoblanadi:

- tovush bilan ta'sir ko'rsatish;
- nutq bilan ta'sir ko'rsatish;
- ma'lumotni soxtalashtirish;

- chalg'itish;
- ongni reja asosida shakllantirish;
- shovqin-suron bilan ta'sir ko'rsatish;
- tokli ta'sir ko'rsatish;
- elektromagnit bilan ta'sir ko'rsatish;
- infratovushlar bilan ishlov berish;
- psixotrop moddalar qo'llash;
- fiziologik ta'sir ko'rsatish (parhez, ozdirish, semirtirish, ichkilikbozlikka) o'rgatish;
- bioenergiya bilan ta'sir ko'rsatish (gipnoz va h.k).

Ruhiyatga salbiy ta'sir qilish vazifasini turli narsalar bajarishi mumkin. Misol uchun, oddiygina televizor turli ranglar vositasida shaxs ongini chalg'itishi mumkin. Bularning oqibatida esa, xalq ongida mafkuraviy vahima vujudga keladi. Mafkuraviy vahima bu jamiyatdagi mavjud tinchlik holatiga rahna solish xavfi bilan aholini qo'rqitish maqsadida muammolarni taqdim etishdir[3]. Mamlakat bu – Vatandir. “Vatan! Mening bor qismatim shu bir so'zda hal”,- deydi Shoir Abdulla Aripov. “Vatan, vatan, deya jonim tanimdan o'lsa ravon, manga na g'amqolur? ”- deb yozgan edi bundan 90 yil muqaddam Abdulla Avloniy. Tavallo esa “Vatan” bilan “jonu tan”ni yonma-yon qo'llaydi. “Bu vatandadur badan”deb yozadi bir o'rinda. Inson borki, vatan tuyg'usi bor.

Ma'lumki hayotda ma'lum bir tajribaga ega bo'lgan, achchiq-chuchukni ko'rgan kishilarning, yaxshimi – yomonmi dunyoqarashini o'zgartirish juda qiyin bo'lib mafkuraviy tah-didlar, avvalo, yoshlar uchun o'ta xavflidir. Tarix mazmuni ko'p jihatdan turli ijti-moiy tabaqalar, siyosiy oqimlar, xalqlar va millatlar, alohida davlatlar va ijtimoiy tuzumlarning xilma-xil maqsad va manfaat-larini o'zida aks ettiruvchi bunyodkor va buzg'unchi g'oyalar va maf-kuralarning amaliyoti, kurashi belgilaydi.

“Jamiyat uchun kambag'allikdan badavlatlikka erishish yo'lidagi eng zaruriy chora siyosiy rejimni o'zgartirishdir. Misrda buning iloji borligi nishonalari ko'rinyapti. Tahrir maydonidagi namoyishchilardan biri Reda Metvali shunday deydi: “Ko'rib turganingizdek, musulmonu nasroniy, kattayu kichik - hamma bir narsani istaydi”. Biz jamiyatdagi mana shunday keng qamrovli harakatlar boshqa mamlakatlardagi siyosiy transformatsiyada muhim rol o'ynaganini ko'rib chiqamiz. Ana shunday siyosiy o'zgarish qachon va nima sababdan sodir bo'lganini tushuna olsak, bunday xarakatlar qachon muvaffaqiyatsizlikka uchrashini – o'tmishda bunaqasi ko'p bo'lgan – va ular qachon muvaffaqiyat qozonib, millionlab odamlar hayotini yaxshilashga umid qila olishimiz mumkunligini baholay olamiz”.

Tarixiy jarayon tabiatidan kelib chiqadigan mazkur xususiyat-ning dialektikasi insoniyat uchun doimiy bo'lgan “ezgulik” va “yovuzlik” o'rtasidagi abadiy kurash deb atalmish muxtasar ta'rifda o'z aksini topgan. “Ko'pincha falokatni bitta kuchli shaxs – g'alamis, buzg'unchi, o'ziga xaddan oshgan jo'jaxo'roz – keltirib chiqarishi mumkun”. Unda shunday deyiladi “Agar siz bunday odamlarga faoliyat uchun inkon bersangiz, boshqa odamlar ularning ta'siriga tushub qoladi. Ular keltiradigan zarar ko'payib borishiga urunmang – ularga ishonib bo'lmaydi. Ularning ta'sirini – ajratib qo'yib yoki quvish bilan – kesib qo'ying. Buzg'unchining o'z xotirjamligini yo'qotib qo'yishga erishing va uning atrofidagilar tarqab ketadi”.

“Ezgulik” – taraqqiyotga intiluvchi kuchlarni, insonparvarlik va yuksak axloq falsafasini, ijtimoiy adolat tamoyillari yoki “Avesto” da ham bayon qilingan “ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu

ish” ning negizini tashkil etadigan qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. “Yovuzlik” esa tarixiy reaksiya, taraqqiyot g'ildiragini orqaga burish, qora kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigon xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi. Eng muximi, biz ko'p yillar davomida amal qilib kelayotgan “davlat-jamiyat- inson” tamoyilini o'zgartirdik”, o'z navbatida shuni ta'kidlash o'rinliki “xalqaro maydondagi mamlakatimizdagi ziddiyatlar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm kabi xavf va taxdidlar xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachig'idek asrab – avaylash naqadar muhimligini ko'rsatmoqda”.

Insoniyatning, jumladan, O'zbekistonning necha yuz yillik sol-nomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'rlik, kulfat urug'larini sochish va qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq qayg'uli sahi-falar ko'p. Siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarni goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko'ra-miz. Lekin mohiyat hamisha o'zgarmay qolavergan. Ya'ni ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an'ana va urf – odatlarini kuch bilan o'zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo'ysundirish va mafkuraviy asoratga solishga, o'zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot bo'lgan mafkuraviy tasavvurlarni tiqishtirishga qaratilgan – desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: Adolat, 2023.
2. “Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – Toshkent:
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son “Ma'naviy Ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6 -son,
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora -tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909 sonli Qarori